

**MODERN METHODOLOGICAL APPROACHES IN TEACHING THE ARABIC LANGUAGE****Mohirjon I. Yodgorov***Lecturer at the Department of Pedagogy and Languages**Institute of Social and Political Sciences,*Mohirjon7755@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Arabic pedagogy, communicative competence, TAFL, grammar-translation method, Task-Based Language Teaching (TBLT), Flipped Classroom, diglossia, linguo-cultural competence, CEFR, artificial intelligence.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This article provides a comparative analysis of traditional and modern methodological approaches in teaching Arabic as a second language. The study scientifically substantiates the crisis of the grammar-translation method and the emergence of paradigms based on communicative competence (CLT, TBLT). Furthermore, it highlights the integration of digital technologies, the “Flipped Classroom” model, and artificial intelligence into the educational process, as well as the significance of the linguo-cultural approach in addressing the issue of diglossia. The article concludes with practical recommendations for improving the quality of Arabic language education based on CEFR standards.

ARAB TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR**Mohirjon I. Yodgorov***Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti**“Pedagogika va tillar” kafedrasi o‘qituvchisi*Mohirjon7755@gmail.com*Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: Arab tili metodikasi, kommunikativ kompetensiya, TAFL, grammatik-tarjima metodi, vazifaga yo‘naltirilgan ta‘lim (TBLT), to‘ntarilgan sinf, diglossiya, lingvomadaniy kompetensiya, CEFR, sun‘iy intellekt.

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda an‘anaviy va zamonaviy metodologik yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida grammatik-tarjima metodining inqirozi va uning o‘rniga kommunikativ kompetensiyaga

asoslangan (CLT, TBLT) paradigmalarining kirib kelishi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar, "To'ntarilgan sinf" modeli va sun'iy intellektning integratsiyalashuvi hamda diglossiya muammosini hal qilishda lingvomadaniy yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Maqola yakunida arab tili ta'limi sifatini CEFR standartlari asosida oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ АРАБСКОМУ ЯЗЫКУ

Мохиржон И. Ёдгоров

Преподаватель кафедры педагогики и языков

Института социальных и политических наук

Mohirjon7755@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: методика преподавания арабского коммуникативная компетенция, TAFL, грамматико-переводный метод, обучение, ориентированное на выполнение задач (TBLT), перевёрнутый класс, диглоссия, лингвокультурная компетенция, CEFR, искусственный интеллект.</p>	<p>Аннотация: В данной статье проведён сравнительный анализ традиционных и современных методологических подходов к обучению арабскому языку как второму языку. В ходе исследования научно обоснован кризис грамматико-переводного метода и рассмотрено внедрение парадигм, основанных на коммуникативной компетенции (CLT, TBLT). Также освещаются вопросы интеграции цифровых технологий, модели «перевёрнутого класса» и искусственного интеллекта в образовательный процесс, а также значение лингвокультурного подхода в решении проблемы диглоссии. В заключение статьи предложены практические рекомендации по повышению качества преподавания арабского языка на основе стандартов CEFR.</p>
---	--

Kirish. Globallashuv jarayonlari va xalqaro aloqalarning kengayishi natijasida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab muttasil ortib bormoqda. Dunyo miqyosida eng ko'p so'zlashuvchiga ega bo'lgan beshta tildan biri arab tili o'zining boy lug'at tarkibi va murakkab grammatik qurilishi bilan ajralib turadi. O'zbekiston sharoitida arab tili nafaqat diniy va madaniy merosimizni o'rganish kaliti, balki Yaqin Sharq mamlakatlari bilan iqtisodiy-siyosiy hamkorlikni mustahkamlashning muhim vositasi hamdir. Biroq, uzoq yillar davomida arab tili o'qitishda

hukmronlik qilgan konservativ metodlar bugungi kun talablariga, ya'ni tilni jonli muloqot vositasi sifatida egallash ehtiyojiga to'laqonli javob bera olmayapti. Shu sababli, o'qitish jarayoniga zamonaviy metodikalarni tadbiq etish, talabning nutqiy faoliyatini rivojlantirish va dars jarayonini interaktiv tashkil etish dolzarb ilmiy-pedagogik masalaga aylandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arab tili o'qitish metodikasining tarixiy va nazariy tahlili. Arab tilini ikkinchi til sifatida o'qitish (TAFL) metodologiyasi asrlar davomida shakllanib kelgan murakkab evolyutsion jarayonni o'z ichiga oladi va bu jarayonni tushunish uchun, avvalo, uzoq yillar davomida ta'lim tizimining asosi bo'lib kelgan an'anaviy yondashuvlarni tahlil qilish lozim. "Al-Tariqa al-nahviyya al-tarjamiyya" ya'ni grammatik-tarjima metodi arabshunoslik maktablarida, xususan, klassik madrasa ta'limi va dastlabki akademik bosqichlarda eng ko'p qo'llanilgan uslub hisoblanadi. Ushbu metodning bosh maqsadi talabaga tilning grammatik qoidalarini (nahv va sarf) mukammal o'rgatish hamda ushbu qoidalar yordamida klassik matnlarni, xususan, Qur'oni karim, hadisi shariflar va qadimiy adabiy merosni so'zma-so'z tarjima qilish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. (Richards, Jack C. and Rodgers, Theodore S., 2014, p. 4)

Metodning ijobiy jihati shundaki, u talabada o'ta kuchli lingvistik bazani hosil qiladi, ya'ni talaba fe'l boblarining yasalishi, gapdagi e'rob belgilari va murakkab sintaktik aloqalarni matematik aniqlikda tushunadi, bu esa qadimiy manbalar bilan ishlashda beqiyos ilmiy ahamiyatga egadir. Biroq, ushbu metodda tilga "tirik muloqot vositasi" emas, balki "statik kodlar tizimi" sifatida qaralishi uning eng katta salbiy jihati bo'lib, darslarda asosiy e'tibor matnni dekonstruksiya qilishga qaratilgani sababli, tinglab tushunish va gapirish kabi nutqiy faoliyat turlari deyarli e'tibordan chetda qoladi. Natijada, talaba murakkab matnni sharhlay olsa-da, oddiy maishiy vaziyatda o'z fikrini arab tilida bayon qilishda chuqur qiyinchilikka uchraydi va bu holat metodik inqiroz deb ataluvchi tushunchani yuzaga keltirmoqda. Psixolingvistik tahlil shuni ko'rsatadiki, nima uchun yillar davomida grammatikani o'rgangan, minglab lug'at boyligiga ega talaba jonli muloqotda oqsamoqda degan savolga inson miyasining kognitiv yuklamasi orqali javob topish mumkin. (Richards, Jack C. and Rodgers, Theodore S. 2014, p. 4)

Natijalar. Muloqot jarayonida inson miyasi bir necha millisoniya ichida axborotni qabul qilishi va javob qaytarishi kerak bo'lsa, grammatik-tarjima metodi orqali o'qigan talabning miyasida avval eshitilgan gapni ona tiliga o'girish, so'ngra javobni ona tilida o'ylab, uni qoidalar asosida arabchaga o'girish kabi "uch bosqichli filtr" ishlaydi, bu esa nutqiy turg'unlikka va talabada "men buni bilaman, lekin gapira olmayman" degan ichki psixologik to'siqqa olib keladi. Ushbu metodik inqirozni yengib o'tish maqsadida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dunyo miqyosida arab tilini chet tili sifatida o'qitishda yangi bir yo'nalish TAFL (Teaching Arabic as a Foreign Language) tizimi shakllana boshladi. (Krashen, Stephen D., 1982, p. 25)

Bu tizim G'arb lingvistikasi yutuqlari bilan Sharqning klassik an'alarini birlashtirishga intilib, AQSHning ACTFL va Yevropaning CEFR standartlarini arab tili tabiatiga moslashtirdi. TAFL doirasida markazga kommunikativ kompetensiya qo'yildi, ya'ni talabaga grammatikani quruq qoida sifatida emas, balki funksional vosita sifatida o'rgatish, masalan, nahv darslarida fe'lining tuslanishini shunchaki yodlash emas, balki amaliy topshiriqlar orqali nutqqa singdirish asosiy vazifaga aylandi. Bugungi kunda xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, adabiy til (fus'ha) bilan bir qatorda talabani real arab muhitiga tayyorlovchi zamonaviy texnologiyalarga tayanmasdan turib, yuqori natijaga erishib bo'lmaydi.

Kommunikativ kompetensiya va interaktiv yondashuv. Zamonaviy lingvodidaktikada arab tilini o'qitishning ustuvor yo'nalishi sifatida Kommunikativ til o'qitish (Communicative Language Teaching – CLT) metodikasi maydonga chiqdi va bu yondashuv til o'rgatish falsafasini tubdan o'zgartirdi. CLT metodikasining bosh mazmuni tilni strukturaviy qoidalar to'plami sifatida emas, balki jonli aloqa va muloqot quroli sifatida talqin qilishga asoslanadi, bunda asosiy maqsad talabada lingvistik bilimlar bilan bir qatorda, ijtimoiy-lingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Arab tili o'qituvchisi uchun ushbu metodning amaliy ahamiyati shundaki, dars jarayonida o'quvchi passiv obyektidan faol subyektga aylanadi va tildan foydalanish jarayoni sun'iy mashqlardan real kommunikatsiyaga ko'chadi. (Krashen, Stephen D., 1982, p. 25)

Kommunikativ yondashuvning ajralmas qismi bo'lgan Vazifaga yo'naltirilgan ta'lim (Task-Based Learning – TBL) metodikasi esa bu jarayonni yanada konkretlashtiradi va ta'lim markaziga "vazifa" (task) tushunchasini qo'yadi. Bu yerda vazifa deganda shunchaki grammatik mashq emas, balki natijasi aniq bo'lgan muloqotiy ehtiyoj tushuniladi, ya'ni talabalar real hayotiy vaziyatlar simulyatsiyasi orqali, masalan, aeroportda chipta bron qilish, bozorda savdolashish yoki ilmiy konferensiyada ma'ruza bilan ishtirok etish kabi rolli o'yinlar (role-play) orqali tilni amaliyotda sinaydilar. Aeroport simulyatsiyasida talaba "ayna al-maktab?", "u'ridu tazkira..." kabi iboralarni shunchaki yodlamasdan, balki o'z maqsadiga erishish uchun ushbu lisoniy birliklarni qaysi vaziyatda va qanday ohangda qo'llashni o'rganadi. Bu jarayonda xato qilish tabiiy holat deb qabul qilinadi, chunki asosiy e'tibor xatolarsiz gapirishga (accuracy) emas, balki fikrni tushunarli yetkazib berishga (fluency) qaratiladi. Nutqiy faoliyat turlarining o'zaro bog'liqligi masalasi ham zamonaviy metodik paradigmaning muhim ustuni bo'lib, bunda tinglab tushunish (istima') va gapirish (takallum) ko'nikmalari bir-biridan ajratilmagan holda, parallel ravishda rivojlantiriladi. (Holes, Clive., 2004. p. 48)

Arab tili o'zining fonetik murakkabligi va o'ziga xos maxrajlar bilan ajralib turishini inobatga olsak, "istima'" jarayoni talabada nutqiy qoliplarning shakllanishi uchun poydevor vazifasini o'taydi. Talaba avval ona tilida so'zlashuvchilarning nutqini eshitadi, uni dekodlaydi va

so'ngra ushbu akustik obrazlarni o'z nutqida (takallum) qayta tiklashga harakat qiladi. Interaktiv yondashuvda o'qituvchi ma'ruzachi rolidan voz kechib, maslahatchi va motivator rolini o'z zimmasiga oladi, bu esa talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlik (peer work) va guruhlarda ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, "bozor" mavzusidagi darsda talabalar o'rtasida kechadigan "al-musovama" (savdolashish) jarayoni ularga nafaqat so'z boyligini oshirishga, balki arab xalqlarining madaniy va ijtimoiy muloqot etikasini his qilishga yordam beradi. Bunday metodik yondashuv talabada til to'sig'ining yo'qolishiga va motivatsiyaning barqarorlashishiga xizmat qiladi, chunki har bir dars yakunida talaba tildan foydalanib qandaydir amaliy natijaga erishganini his etadi. Xulosa qilib aytganda, kommunikativ va vazifaga yo'naltirilgan metodlar arab tili o'qitish samaradorligini o'n chandon oshirib, talabani quruq nazariyotdan qutqaradi va uni real lisoniy muhitda erkin harakat qila oladigan mutaxassis sifatida tayyorlashga zamin yaratadi.

Ta'limda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt. Bugungi kunda arab tili kabi murakkab va ko'p qirrali tillarni o'qitish jarayonini zamonaviy raqamli texnologiyalar hamda sun'iy intellekt (AI) vositalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ushbu texnologik transformatsiya o'qituvchi va talaba o'rtasidagi an'anaviy ierarxik munosabatlarni yangilab, ta'limni yanada demokratik va shaxsiylashtirilgan shaklga keltirmoqda. Bu borada eng samarali mexanizmlardan biri sifatida "To'ntarilgan sinf" (Flipped Classroom) modelini ko'rsatish mumkin, uning mohiyati dars strukturasi mantiqan teskari tartibda qurishga asoslanadi. An'anaviy darslarda o'qituvchi vaqtning katta qismini yangi nazariy mavzuni (masalan, arab tili morfologiyasidagi murakkab fe'l boblari yoki sintaksisdagi hol va tamyiz qoidalarini) tushuntirishga sarflaydi, natijada eng muhim bosqich bo'lgan amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashga vaqt yetmay qoladi. "To'ntarilgan sinf" metodida esa talaba nazariy qoidalar, yangi lug'at va mavzuga doir video-ma'ruzalar bilan darsdan oldin, masofaviy ta'lim platformalari orqali mustaqil tanishib chiqadi. (Holes, Clive., 2004. p. 48)

Auditoriyadagi qimmatli vaqt esa faqatgina jonli muloqot, interaktiv baxs-munozaralar, xatolar ustida ishlash va olingan bilimlarni amaliyotga tadbiiq etish uchun sarflanadi, bu esa o'qituvchiga har bir talaba bilan individual ishlash va ularning nutqiy kamchiliklarini real vaqt rejimida tuzatish imkonini beradi.

Raqamli innovatsiyalarning yana bir muhim yo'nalishi korpus lingvistikasi bo'lib, u arab tili lug'at boyligini o'rganishda mutlaqo yangi metodologik ufqlar ochadi. Arab tili o'zining bepoyon sinonimik qatlami va so'zlarning ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi, shuning uchun so'zlarni kontekstdan uzilgan holda, shunchaki lug'at ma'nosi bilan yodlash ko'p hollarda kutilgan natijani bermaydi. Korpus lingvistikasi (masalan, "ArabiCorpus" yoki "KACST" korpuslari) orqali talaba ma'lum bir so'zning zamonaviy matbuotda, badiiy adabiyotda yoki ilmiy diskursda qaysi so'zlar bilan ko'proq birikishini (collocation) statistik aniqlik bilan ko'radi. Bu metod talabada lisoniy sezgini (linguistic intuition) shakllantiradi, ya'ni talaba so'zni shunchaki bilmaydi, balki uni qaysi

vaziyatda va qaysi soʻz birikmasi tarkibida ishlatish kerakligini anglaydi. Masalan, “ketmoq” maʼnosidagi feʼllarning (zahaba, mada, intalaqa) nozik maʼno farqlarini korpus tahlili orqali oʻrganish talabani adabiy nutqini boyitadi va uning ifoda qobiliyatini native-speaker (ona tilida soʻzlashuvchi) darajasiga yaqinlashtiradi. (Larsen-Freeman, Diane., 2000. p. 69)

Zamonaviy bosqichda Sunʼiy intellekt va mobil platformalar individual taʼlim trayektoriyasini yaratishda boshqaruvchi kuchga aylandi. AI texnologiyalari, xususan, katta til modellari va chatbotlar (ChatGPT, Gemini kabi) har bir talabani individual oʻzlashtirish darajasi, qiziqishlari va oʻrganish surʼatiga moslashgan holda shaxsiy repetitor vazifasini bajarmoqda. Talabalar darsdan tashqari vaqtda ushbu intellektual tizimlar bilan arab tilida muloqot qilishlari, oʻz yozgan insholarini bir necha soniya ichida grammatik va uslubiy jihatdan tekshirishlari hamda real vaqt rejimida qayta aloqa feedback olishlari mumkin. Shuningdek, Duolingo, Memrise yoki “Al-Jazeera Learning” kabi mobil ilovalar geymifikatsiya elementlarini taʼlimga kiritish orqali talabani motivatsiyasini barqaror saqlashga xizmat qiladi.

Raqamli vositalar nafaqat maʼlumot beradi, balki talabani kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qilib, unga aynan qaysi mavzu ustida koʻproq ishlash kerakligi boʻyicha algoritmlar asosida tavsiyalar beradi. Bu esa oʻz navbatida oʻqituvchining yukini kamaytiradi va unga darsni koʻproq ijodiy va kreativ yoʻnalishda tashkil etish imkonini yaratadi. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar va sunʼiy intellektning integratsiyalashuvi arab tili taʼlimini statik jarayondan dinamik va yuqori texnologik tizimga aylantirmoqda, bu esa zamonaviy kadrlar tayyorlash sifatini kafolatlaydigan asosiy omildir.

Diglossiya va lingvomadaniy kompetensiya. Arab tili oʻqitish metodikasining eng oʻziga xos va murakkab jihatlaridan biri bu “diglossiya” hodisasi, yaʼni adabiy til (al-Fusʼha) va turli mintaqaviy soʻzlashuv tillari (al-Ammiya) oʻrtasidagi tarkibiy tafovutdir. Uzoq yillar davomida arabshunoslik maktablarida faqat adabiy tilni oʻrgatish anʼanasi hukmronlik qildi, biroq bu yondashuv amaliyotda jiddiy muammoni keltirib chiqardi: talabalar klassik matnlarni tushunib, ilmiy maʼruzalar qila olsalar-da, real arab muhitiga tushganlarida oddiy xalq bilan muloqot qilishda yoki kundalik telekoʻrsatuvlarni tushunishda chuqur lisoniy shokka duch kelmoqdalar. Ushbu muammoni yengib oʻtishning zamonaviy metodikasi Integratsiyalashgan yondashuv (Integrated Approach) boʻlib, u taʼlim jarayonining boshidanoq adabiy til va soʻzlashuv tilining umumiy elementlarini uygʻunlikda oʻrgatishni taqozo etadi. (Larsen-Freeman, Diane., 2000. p. 69)

Bu yerda maqsad talabani har bir dialektda gapirishga majburlash emas, balki unda kommunikativ moslashuvchanlikni shakllantirishdir. Zamonaviy oʻqituvchi talabaga fusʼha va ammiya oʻrtasidagi fonetik, leksik va grammatik oʻtish qoidalarini masalan, “qof” harfining turli hududlarda talaffuz etilishi yoki inkor yuklamalarining oʻzgarishini tizimli ravishda tushuntirib borishi lozim. Bu yondashuv orqali talaba tilni ikki alohida tizim sifatida emas, balki bir butun

lisoniy kontinuum sifatida qabul qila boshlaydi, bu esa uning nafaqat akademik doiralarda, balki real ijtimoiy muhitda ham erkin harakatlanishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy metodika til o'rganishni lingvomadaniy kompetensiyasiz tasavvur etib bo'lmasligini isbotlamoqda. Til shunchaki so'zlar yig'indisi emas, balki millatning mentaliteti, qadriyatlar va dunyoqarashini o'zida mujassam etgan tirik organizmdir. Shuning uchun ham talabaga arab tilini o'rgatish jarayonida madaniy kodlarni (cultural codes) singdirish hayotiy zaruriyatdir. Lingvomadaniy kompetensiya tarkibiga arab xalqlarining muloqot etikasi, tana tili (non-verbal communication), mehmonnavozlik an'analari va diniy-axloqiy tushunchalar kiradi. Masalan, arab tilidagi "Inshaalloh", "Mashaalloh", "Alhamdulillah" kabi iboralar shunchaki diniy so'zlar emas, balki muloqotni yumshatuvchi va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi madaniy vositalardir. Talaba ushbu iboralarning qaysi kontekstda va qanday ma'no yuklamasi bilan ishlatilishini tushunmas ekan, uning nutqi arab dunyosida begona bo'lib qolaveradi. Integratsiyalashgan yondashuv dars jarayoniga arab dunyosidagi tana tili elementlarini ham olib kiradi, chunki ba'zan birgina imo-ishora masalan, qo'lni ko'krakka qo'yish yoki bosh harakatlari butun bir jumlaning o'rnini bosishi mumkin.

Bundan tashqari, lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishda autentik materiallardan, ya'ni arablar o'zlari uchun yaratgan kinolar, reklamalar, ijtimoiy tarmoqlardagi jonli muloqotlar va badiiy asarlardan foydalanish metodik jihatdan katta samara beradi. Bu jarayonda talaba arab xalqining mentalitetiga xos bo'lgan o'ta xushmuomalalik "al-mujamala" va balandparvozlik "al-mubolag'a" xususiyatlarini o'rganadi. Agar talaba ushbu madaniy kodlarni egallasa, u nafaqat to'g'ri gapiradi, balki suhbatdoshining yashirin ma'nolarini contextual meaning ham uqa boshlaydi. Zamonaviy metodika talabani lingvistik robot emas, balki madaniyatlararo vositachi intercultural mediator sifatida tarbiyalashni maqsad qiladi. Bu esa o'z navbatida arab tilini o'rganayotgan yosh mutaxassisga diplomatik muzokaralarda, xalqaro biznes aloqalarida va ilmiy ekspeditsiyalarda o'z fikrini ishonchli va madaniyatga mos ravishda yetkazish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, diglossiya muammosini hal qilish va madaniy kodlarni til bilan uyg'unlikda o'rgatish arab tili ta'limining sifatini yangi bosqichga olib chiquvchi, talabaning professional portretini to'ldiruvchi eng muhim omillardan biridir.

Baholash tizimining transformatsiyasi. Arab tili o'qitish metodikasidagi zamonaviy yangilanishlar baholash tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. An'anaviy baholash usullari, asosan, talabaning xotirasini va grammatik qoidalarni qay darajada yod olganini tekshirishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuv talabaning nima bilishini emas, balki nima qila olishini (competency-based assessment) o'lchashni maqsad qiladi. Bu borada Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan va dunyo miqyosida e'tirof etilgan CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) standartlarining arab tili tabiatiga

moslashtirilgan holda qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. CEFR tizimi talabaning tilni egallash darajasini A1 dan C2 gacha bo'lgan aniq bosqichlarga ajratib, har bir bosqich uchun nutqiy ko'nikmalar bo'yicha aniq deskriptorlarni mezonlarni belgilab beradi. Masalan, B2 darajasidagi talaba arab tilida murakkab mavzulardagi matnlarning asosiy mazmunini tushunishi, o'z mutaxassisligi bo'yicha ilmiy munozaralarda ishtirok eta olishi va ona tilida so'zlashuvchilar bilan tabiiy ravishda muloqot qila olishi talab etiladi. Bunday shaffof baholash tizimi talabaga o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini ko'rish imkonini beradi hamda ta'lim jarayonida subyektivlikni kamaytiradi. (Larsen-Freeman, Diane., 2000. p. 69)

Bundan tashqari, zamonaviy baholashda formativ shakllantiruvchi baholashning o'rni beqiyosdir. Bu usulda o'qituvchi talabani faqat semestr yakunida emas, balki butun o'quv jarayoni davomida kuzatib boradi. Bunda "Portfolio" metodi keng qo'llaniladi, talaba yil davomida bajargan ijodiy ishlari, yozgan maqolalari, audio-vizual taqdimotlari va muloqot mashqlarini to'plab boradi. Bu esa talabaga o'zining dinamik o'sishini tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida o'tkaziladigan onlayn testlar va platformalardagi avtomatlashtirilgan qayta aloqa feedback tizimlari talabaga o'z xatosini o'sha zahotiy qo'ng'urak anglashga yordam beradi. Baholashning bunday ko'p qirrali tizimi talabada nafaqat bilim, balki o'z-o'zini nazorat qilish va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Arab tilini o'qitishdagi zamonaviy metodlar tahlili shuni ko'rsatadiki, til ta'limi endilikda shunchaki qoidalar majmuasini o'rgatish emas, balki shaxsda madaniyatlararo muloqot qobiliyatini shakllantirish jarayoniga aylandi. An'anaviy grammatik-tarjima metodidan voz kechmagan holda, uni kommunikativ va raqamli texnologiyalar bilan sintez qilish bugungi kunning eng maqbul metodik yechimidir. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, "To'ntarilgan sinf" modeli, vazifaga yo'naltirilgan ta'lim va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish arab tili darslarining samaradorligini bir necha barobar oshiradi. Shu bilan birga, diglossiya muammosini hal qilishda adabiy til va so'zlashuv tilini integratsiyalashgan holda o'qitish talabalarning real hayotdagi muloqot qobiliyatini kafolatlaydi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlillar asosida arab tili o'qituvchilari va o'quv dasturlari mualliflari uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari suramiz:

1. O'quv jarayonida faqat darsliklar bilan cheklanmasdan, arab dunyosining zamonaviy media mahsulotlari podkastlar, tok-shoular, korpus matnlari kabi autentik materiallardan keng foydalanish;

2. Darslarda grammatik tahlildan ko'ra, ko'proq situatsion muloqot mashqlariga role-play va talabaning faol nutqiga student-talk time urg'u berish;

3. Baholash tizimini xalqaro CEFR standartlariga to'laqonli moslashtirish va talabaning mustaqil ishiga portfolio alohida e'tibor qaratish. Xulosa qilib aytganda, metodikadagi bunday

innovatsion yondashuvlar O'zbekistonda arabshunoslik maktabining raqobatbardoshligini oshiradi va xalqaro maydonda o'z fikrini erkin bayon qila oladigan, chuqur bilimli mutaxassislar yetishib chiqishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva, M. R., & Abduqodirova, M. I. (2025). The role of information technology in modern education. *Modern education and development*, 34(1), 364-369. (in English)
2. Al-Fawzan, Abdul Rahman ibn Ibrahim. (2011.) *Guidelines for Teachers of the Arabic Language for Non-Native Speakers. Ida'at li Mu'allimi al-Lugha al-'Arabiyya li Ghayr al-Natiqina Biha.* – Riyadh: Al-'Arabiyya lil-Jami', 300 p. (in Arabic)
3. Al-Jazeera Learning Portal. (n.d.) "Ta'allum al-'Arabiyya – ma'a al-Jazeera" learning.aljazeera.net
4. Badawi, Al-Said. (1992.) *Teaching Arabic to Non-Native Speakers: Issues and Trends. Ta'līmu al-lughati al-'arabiyyati li-ghayri al-nāṭiqīna bihā: al-qadāyā wa al-ittijāhāt.* – Cairo: Dar al-Kitab al-Jami'i, 60 p. (in Arabic)
5. Council of Europe. (2001.) *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment.* – Cambridge: Cambridge University Press, 390 p. (in English)
6. Holes, Clive. (2004.) *Modern Arabic: Structures, Functions, and Varieties.* – Washington, D.C.: Georgetown University Press, 450 p. (in English)
7. Korayem, SMA, Shamusarov, SG, Mutalova, GS, Begmatova, BM, & Saidova, NM (2024). Arab tilini ona tili bo'lmaganlarga o'qitishda o'rta darajadagi tildan foydalanishga chaqirish, uning asoslari va muammolari. *Power System Technology Journal*, ISSN, 1000-3673. (in English)
8. Krashen, Stephen D. (1982.) *Principles and Practice in Second Language Acquisition.* – Oxford: Pergamon Press Inc, 200 p. (in English)
9. Larsen-Freeman, Diane. (2000.) *Techniques and Principles in Language Teaching.* – Oxford: Oxford University Press, 270 p. (in English)
10. Mutalova, G. (2025). ANALYZING THE EFFECTIVENESS OF USING FLIPPED LEARNING IN TEACHING ARABIC. *DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MODERN SCIENCES International scientific-online conference*, 4(6), 179-183. (in English)
11. Richards, Jack C. and Rodgers, Theodore S. (2014.) *Approaches and Methods in Language Teaching.* – Cambridge: Cambridge University Press, 150 p. (in English)

12. Yusufova, N.M. (2022.) Foundations of Methodology for Teaching Modern Arabic. Zamonaviy arab tilini o‘qitish metodologiyasining asoslari. – Tashkent: National University of Uzbekistan, 10 p. (in Uzbek)